

Malaka ishining tarkibiy qismlariga va mazmuniga qo‘yiladigan talablar (barcha toifalar uchun)

O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 15 avgustdagi "Xalk ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 234-sonli qarori, Xalk ta’limi vazirligining 2015 yil 27 yanvardagi 21 sonli buyrug‘i bilan tasdiklangan "Tinglovchilarning malaka ishini bajarishiga qo‘yiladigan talablar va uni himoya qilish tartibi" ilovasiga muvofiq malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha ularga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq malaka oshirish guruxi tinglovchisi tomonidan bajariladigan malaka ishining tarkibiy qismlariga va mazmuniga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Malaka ishini tayyorlashga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat

1. Malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha malaka ishining xajmi va mazmunini shakllantiradi, malaka talablarini olg‘a suradi, ta’limning o‘xshash texnologiya va shakllarini tanlashga imkoniyatlar beriladi.

2. Maktabgacha ta’limning davlat talablariga va Umumiy o‘rta ta’lim Davlat ta’lim standartlariga nisbatan izchillikni ta’minlash;

3. Zamonaviy ta’lim texnologiyalariga, o‘qitish vositalariga yo‘naltirilganlik;

4. Fanni o‘qitishda axborot texnologiyalarni qo‘llanilishi, Internetning global tarmog‘i bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini xosil bo‘lishi;

5. Predmetlararo aloqalardan foydalanish maxorati;

6. Ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasiga yondashish;

7. Bolalarni intellektual rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlash bo‘yicha bazaviy dasturlaridan foydalanish;

8. O‘qitishning interfaol metodlari;

9. Eng samarali yechimni amaliy-metodik jixatdan asoslab berishi, amaliyotga qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatishi;

10. Natijalarni taxlil qilishi, xulosalarni shakllantirishi, qo‘llanish soxasini belgilashi va takliflar kiritish.

11. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslashi;

12. Ishning maqsadi va vazifalarini to‘g‘ri belgilashi;

13. Malaka ishi mavzusining nazariy qismlarini tinglovchining o‘zi ishlayotgan ta’lim muassasasidagi amaliy faoliyati bilan bog‘lash;

14. Ko‘tarilgan muammoning hozirgi xolatini taxlil qilishi va umumlashtirishi;

15. Malaka ishi rejada belgilangan barcha mavzularni to‘liq qamrab olgan xolda batafsil ma’lumot shaklida tayyorlanishi va gurux tinglovchilari xamda maxsus komissiya oldidagi taqdimoti tarzida ximoya qilinishi shart. (Taqdimot Power Point slayd shaklida tayyorlanadi)

Malaka ishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat tarzda rasmiylashtirilishi talib qilinadi:

- **Malaka ishining titul sahifasi:** unda vazirlik, institut va kafedraning to‘liq nomi, ishning mavzusi, bajaruvchining ismi, familiyasi, otasining ismi to‘liq yoziladi, ish joyi, lavozimi, ilmiy rahbar familiyasi, shahar, yil va oy ko‘rsatiladi. Ishning rejasi; Malaka ishini bayoni, undagi sarlavxalar boshlanadigan saxifalar ko‘rsatilgan holda yoziladi. Tinglovchi, ilmiy raxbar va kafedra mudirining imzosi qo‘yiladi.

- **Annotatsiya bo‘limida** malaka ishining mavzusini qisqacha mazmun-moxiyati, axamiyatli tomonlari ochib beriladi (bu 1-2 varaq atrofida, shrifta belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Kirish qismida** mavzuning dolzarbligi, unga tegishli ilmiy, nazariy, metodik va amaliy ma’lumotlarning qisqa sharxi, ishning maqsadi va vazifalari, amaliyotda qo‘llashlari bayon qilinadi (bu 2-3 varaq atrofida, shrifta belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Ishning asosiy qismida** mavzu bo‘yicha amaldagi mavjud axvol, uni yanada takomillashtirish imkoniyatlari, o‘rganish, kuzatish usullari, misollar, shaxsiy tajribalar, taxlillar, ayrim o‘zaro bog‘liqliklarni qiyoslash, umumlashtirish va shu kabi masalalar tegishli sarlavxalar ostida bayon qilinadi (bu 18-20 varaq atrofida, shrifta belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Xulosa qismida** ishda ko‘rib chiqilgan muammolarning sifatli va samarali yechimlari bo‘yicha muallifning xulosalari xamda malaka oshirish kursidan keyin o‘z ish joyida amalga oshiradigan ishlari loyixasi bayon qilinadi (bu 1-2 varaq atrofida, shrifta belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Foydalanilgan adabiyotlar** ro‘yxatini berish shart hisoblanadi (bunda Xalk ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi, Xalk ta’limi xodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti saytlaridan foydalanganligini xam kiritish mumkin).

- **Ilova sifatida** mustaqil o‘qib bilim orttirishi davomida bajargan ijodiy ishi va o‘zi kuzatib taxlil qilgan dars yoki mashg‘ulot materiallari,

oʻtkazgan ochiq darsi yoki mashgʻuloti materiallari va shu ochiq dars taxlili boʻyicha metod birlashma bayonnomasi, tinglovchining mustaqil oʻqib bilim orttirishi xakida metod birlashma xulosasi kiradi.

Malaka ishiga raxbar toʻplangan malaka ishlarini taqrizdan oʻtkazishni tashkil etish uchun Oʻquv jarayonini tashkil etish boʻlimi bilan kelishgan xolda belgilangan meʼyorlar asosida oʻrnatilgan tartibda mutaxassislarga taqdim etadi.

Malaka ishini tinglovchiga biriktirilgan raxbar taqrizchining yozma xulosasi boʻlgan holda malaka oshirish institutining yakuniy attestatsiyasi sifatida himoya qilish uchun ruxsat beriladi.

Kurs mashgʻulotlarining 4-xaftasidan boshlab, institut prorektori tasdiqlagan jadval asosida, kafedra yigʻilishida malaka ishlarining guruxlardagi himoyasi oʻtkaziladi.

"Malaka ishi" ximoyasi kunidan oʻn kun oldin kurs raxbari Oʻquv boʻlimi bilan kelishgan xolda "Malaka ishi" ximoyasini oʻtkazish komissiya aʼzolari tarkibini belgilaydi va uni institut rektori buyrugʻi bilan tasdiqlatadi.

Kurs raxbari malaka ishi ximoyasini bayonnomasini oʻrnatilgan tartibda yuritilishini tashkil etadi.

Himoya natijasiga koʻra 85-100 ball olgan tinglovchilarning Malaka ishlari bayonnomada aloxida qayd etilib, uni institut Ilmiy kengashida koʻrib chiqib, chop etishga tavsiya etilishi koʻrsatib oʻtiladi.

Xalq taʼlimi vazirligining 2015 yil 27 yanvardagi 21-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan Nizomdagi "Ijodiy yoki jismoniy tayyorgarlik boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalar talab qilinadigan toifalar (jismoniy tarbiya, musiqa, tasviriy sanʼat va shu kabilar)dagi pedagog xodimlarning kurs davomida nazariy va amaliy mashgʻulotlardagi faolligi va oʻzlashtirish darajasi reyting nazorati usullari (yozma, ijodiy, mustaqil, amaliy ishlar, sinovlar va boshqalar) asosida baxolanadi" deb koʻrsatilgan ijodiy yoki jismoniy tayyorgarlik boʻyicha reyting nazorati usulida tinglovchi asosan malaka oshirish kursi oʻquv rejasidagi mutaxassislik fanlari bloki boʻyicha baxolanadi

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tinglovchilari uchun

TAVSIYANOMA

Institutning o'z oldiga qo'ygan maqsadlardan biri - pedagoglarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini Davlat talablariga muvofiq oshirish, zamonaviy pedagogika, androgogika, psixologiya va metodika fanlarining yutuqlarini o'rganish va targ'ib qilishdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishning eng samarali usullaridan biri - bu tinglovchilarning ma'lum bir fan soxasi bo'yicha yozgan ijodiy (malaka) ishlaridir.

Malaka ishi - malaka oshirish kursini bitirganlik to'g'risidagi sertifikatni berish bo'yicha Davlat attestatsiyasining yakunidir.

Malaka ishi tinglovchining tadqiqot ishi hisoblanadi va kafedra yig'ilishida muxokama qilingan, institut ilmiy kengashida tasdiqlangan mavzular bo'yicha yoziladi.

Malaka ishini tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat

1. Malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha malaka ishining xajmi va mazmunini shakllantiradi, malaka talablarini olg'a suradi, ta'limning o'xshash texnologiya va shakllarini tanlashga imkoniyatlar beriladi.

2. Maktabgacha ta'limning davlat talablariga va Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlariga nisbatan izchillikni ta'minlash;

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga o'qitish vositalariga yo'naltirilganlik;

4. Fanni o'qitishda axborot texnologiyalarni qo'llanilishi, Internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini hosil bo'lishi;

5. Predmetlararo aloqalardan foydalanish maxorati;

6. Ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasiga yondashish;

7. Bolalarni intellektual rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlash bo'yicha bazaviy dasturlaridan foydalanish;

8. O'qitishning interaktiv metodlari;

9. Eng samarali yechimni amaliy-metodik jixatdan asoslab berishi, amaliyotga qo'llash yo'llarini ko'rsatishi;

10. Natijalarni taxlil qilishi, xulosalarni shakllantirishi, qo'llanish soxasini belgilashi va takliflar kiritish.

11. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslashi;

12. Ishning maqsadi va vazifalarini to'g'ri belgilashi;

13. Ko‘tarilgan muammoning hozirgi holatini taxlil qilishi va umumlashtirishi;

14. Malaka ishi mavzusining nazariy qismlarini tinglovchining o‘zi ishlayotgan ta’lim muassasasidagi amaliy faoliyati bilan bog‘lash;

15. Malaka ishi rejasida belgilangan barcha mavzularni to‘liq qamrab olgan holda batafsil ma’lumot shaklida tayyorlanishi va gurux tinglovchilari xamda maxsus komissiya oldidagi tavidmoti tarzida ximoya viliinishi shart. (Tavidmot Power Point slayd shaklida tayyorlanadi)

Malaka ishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat tarzda rasmiylashtirilishi talab qilinadi:

Malaka ishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat tarzda rasmiylashtirilishi talab qilinadi:

- **Malaka ishining titul sahifasi:** unda vazirlik, institut va kafedraning to‘liq nomi, ishning mavzusi, bajaruvchining ismi, familiyasi, otasining ismi to‘liq yoziladi, ish joyi, lavozimi, ilmiy raxbar familiyasi, shaxar, yil va oy ko‘rsatiladi. Ishning rejas; Malaka ishini bayoni, undagi sarlavxalar boshlanadigan saxifalar ko‘rsatilgan xolda yoziladi. Tinglovchi va ilmiy raxbar va kafedra mudirining imzosi qo‘yiladi.

- **Annotatsiya bo‘limida** malaka ishining mavzusini qisqacha mazmun-moxiyati, axamiyatli tomonlari ochib beriladi (bu 1-2 varaq atrofida, shrifta belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Kirish qismida** mavzuning dolzarbligi, unga tegishli ilmiy, nazariy, metodik va amaliy ma’lumotlarning qisqa sharxi, ishning maqsadi va vazifalari, amaliyotda qo‘llashlari bayon qilinadi (bu 2-3 varaq atrofida, shrifta belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Ishning asosiy qismida** mavzu bo‘yicha amaldagi mavjud axvol, uni yanada takomillashtirish imkoniyatlari, o‘rganish, kuzatish usullari, misollar, shaxsiy tajribalar, taxlillar, ayrim o‘zaro bog‘liqliklarni qiyoslash, umumlashtirish va shu kabi masalalar tegishli sarlavxalar ostida bayon qilinadi (bu 18-20 varaq atrofida, shrifti belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Xulosa qismida** ishda ko‘rib chiqilgan muammolarning sifatli va samarali yechimlari bo‘yicha muallifning xulosalari hamda malaka oshirish kursidan keyin o‘z ish joyida amalga oshiradigan ishlari loyixasi bayon qilinadi (bu 1-2 varak atrofida, shrifti belgilangan tartibda bo‘lishi talab etiladi).

- **Foydalanilgan adabiyotlar** ro‘yxatini berish shart hisoblanadi (bunda Xalk ta’llimi vazirligi, Respublika ta’lim markazi, Xalk ta’limi

xodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti saytlaridan foydalanganligini xam kiritish mumkin).

- **Ilova sifatida** mustaqil o‘qib bilim orttirishi davomida bajargan ijodiy ishi va o‘zi kuzatib taxlil qilgan dars yoki mashg‘ulot materiallari, o‘tkazgan ochiq darsi yoki mashg‘uloti materiallari va shu ochiq dars taxlili bo‘yicha metod birlashma bayonnomasi, tinglovchining mustaqil o‘qib bilim orttirishi xaqida metod birlashma xulosasi kiradi.

16. Malaka ishi 20-25 saxifadan kam bo‘lmagan (ilovadan tashqari) qo‘lyozma shaklida tinglovchining shaxsan o‘zi tomonidan tayyorlanishi va kurs mashg‘ulotlarining 16-kunigacha gurux mas‘uliga topshirilishi lozim.